

Tengdoshlar yutug'iga havas

Ayni kunlarda o'quv jarayonimizga yangi kirib kelgan talabalarimizni tanishtiruv-o'quv jarayonlari davom etmoqda. Har bir oliy ta'limga qadam qo'ygan yoshlar ilm yo'lining qanchalik sharafli, shu barobarda mashaqqatli ekanligini tushunishi va his qilishi zarur.

Berilayotgan imkoniyatlar ayni shu yoshlar uchun yaratilganligining isboti va namunasi bo'la oladigan, shu marralarni zabt etgan, ko'zga ko'ringan talaba va magistrantlarimiz bilan ham uchrashuvlar bo'lib o'tmoqda.

Jumladan, shu yilning 6 sentabr kuni 1-kurs maktabi doirasida GIM fakulteti GIM yo'nalishi 1-kurs magistranti, Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi stipendianti Rustam Vafoev "Suv xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash" yo'nalishi talabalari bilan uchrashdi. Uchrashuvda talabalar Respublikamizda joriy etilgan Prezident stipendiyasi, Beruniy va Navoiy nomidagi davlat stipendiyalari, Yoshlar ittifoqi va ilmiy kengash stipendiyalari to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ldilar. Hamda magistrantimiz o'zining ilmiy ishlari va magistrlik dissertasiyada olib borayotgan tadqiqotlari bilan o'rtoqlashdi. Uchrashuv so'ngi savol-javoblarga boy bo'ldi. Albatta, bunday uchrashuvlar yoshlar kelajagi uchun o'z samarasini beradi deb ishonamiz.



"Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasida stajyor -o'qituvchi Sarvinoz Xolova axboroti

